

**O‘QUVCHILARNING BILIM, KO‘NIKMA VA KOMPETENSIYALARINI
BAHOLASH HAMDA BILISH FAOLIGINI OSHIRISH USULLARI**

*Termiz davlat pedagogika institute
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari
ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Toshboyeva Mehriniso

toshboyevamehriniso25gmail.com

Ilmiy rahbar: Djumayeva Mohigul Mamanazarovna

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'qituvchi tamonidan interfaol metodlarni qo'llab dars o'tish o'quvchilarda har tamonlama ilmiy-nazariy bilimlarni mustaqil egallash, bilim va ko'nikma, malakalarini shakllantirish va shu asosida o'quvchilarning ilmiy dunyo qarashlarini tarkib toptirish hamda faolligini oshirish, erkin fikr yurita olishga o'rgatish, ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va ro'yobga chiqarish, o'qituvchi-o'quvchi hamkorligini shakllantirish va nihoyat kafolatlangan yakuniy natijaga erishishishi haqida ilmiy asoslangan fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, kompetentlilik interfaol metod, kommunikativ kompetensiya axborot bilan ishlash shaxsiy kompetentlik differentsial va individual yondashuv, masala, mashq, darslik, o'quv jarayoni, nazorat.

Abstract: In this article, teaching using interactive methods on the part of the teacher helps students to independently acquire all kinds of scientific and theoretical knowledge, to form their knowledge and skills, and on the basis of this, to form the content of students' views of the scientific world and increase their activity, to teach them to think freely, to identify and realize their creative abilities., the formation of educational-student cooperation and the achievement of a guaranteed final result were scientifically based opinions.

Key words: Competence, competence, interactive method, communicative competence, working with information, personal competence, differential and individual approach, problem, exercise, textbook, educational process, control.

KIRISH

Kompetensiya –muayyan fan bo'yicha o'quvchi egallagan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir. Inson qaysi kasb sohibi bo'lishidan qat'iy nazar o'z ishiga, mashg'ulotiga qunt bilan, mehr bilan yondashsa, uning sir asrorini mukammal egallaydi, shu bilan birga o'z-o'zini anglaydi, shu sohada kamol topadi. O'qituvchi ham bolalarni sevsa, tarbiyalasa, o'zi ham ulg'ayadi,

donishmandlik kasb etib boradi. O'qituvchi kelajak farzandini tarbiyalab bilim beradi. Zero kelajak yoshlar qo'lida, ular bizning ertangi kunimiz. Ularda kompetensiyalarni shakllantirilishi, dars davomida o'quvchining faqat tinglovchi yoki eshitganini takrorlavchi "to'ti"ga emas, balki chuqur mushohada yurituvchi, mustaqil fikrini bayon etuvchi, boshqalar bilan o'zaro hamkorlikda ishlovchi, o'zgaralar fikrini hurmat qiluvchi, keng dunyoqarashli shaxsga aylantitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Interfaol metodlarni qo'llab dars o'tish o'quvchilarda har tamonlama ilmiy-nazariy bilimlarni mustaqil egallash, bilim va ko'nikma, malakalarini shakllantirish va shu asosida o'quvchilarning ilmiy dunyo qarashlarini tarkib toptirish hamda faolligini oshirish, erkin fikr yurita olishga o'rgatish, ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va ro'yobga chiqarish, o'qituvchi-o'quvchi hamkorligini shakllantirish va nihoyat kafolatlangan yakuniy natijaga erishishishni ta'minlaydi.

Interfaol usullarda o'qituvchi o'quvchining mustaqil va mukammal bilim olishi uchun muhit yaratmog'i, fan asoslarini egallashga yo'naltirmog'i, qiziqish, mehr uyg'otish bilan shug'ullanadi. Yangi pedagogik texnologiya dars o'tish usullari va shakllarini o'zgartirib, ularni xilma-xil qilib, o'quvchini o'quv jarayonining faol qatnashchisiga aylantiradi. O'qitishning innovasion, nostandart(interfaol) shakllari kompyuterli o'yinlar, intrenetdan foydalanish, elektron darsliklar bilan turli usullarda yangi mavzuga ko'proq e'tibor qaratish, o'qitishni suhbat, o'yin, musobaqa, sahna ko'rinishli, musiqali, savol-javob, aqliy hujm, mushoira sayyohat, intervyu, tijorat, bahs-munozara kabi usullarda dars o'tishni talab qiladi. Darsning borish jarayonida ta'limiy metodlar va usullar almashina boradi. Noan'anaviy darsda o'quvchi shaxsi birinchi o'rinda turadi. O'qituvchi o'quvchi bilan yakkama-yakka, interfaol usulida harakat qiladi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash hamda ularning bilish faolligini oshirish zamonaviy ta'limning asosiy talablaridan biri bo'lib, bu jarayonda innovatsion pedagogik texnologiyalar va tizimli yondashuv muhim rol o'ynaydi.

Quyida ushbu yo'nalishdagi samarali usullar va yondashuvlar to'plami keltirilgan:

I. Bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni baholash usullari

Zamonaviy baholash faqat natijani (baho) qayd etmaydi, balki o'quv jarayonini boshqaradi va rivojlantiradi.

• **Formativ (shakllantiruvchi) baholash:** O'quvchi ta'lim jarayonida qanday o'zlashtirayotganini kuzatib boradi, darhol qayta aloqa (feedback) beradi.

• **Summativ (yakuniy) baholash:** Mavzu, chorak yoki yil yakunida erishilgan natijalarni (bilim va kompetensiyalarni) standartlashtirilgan o'lchovlar orqali baholaydi.

- **Portfolio metodi:** O'quvchining ma'lum bir vaqt davomidagi ijodiy ishlari, loyihalari va yutuqlari to'plamini tahlil qilish orqali baholash.

- **O'z-o'zini va o'zaro baholash:** O'quvchilarda refleksiya (o'z faoliyatini tahlil qilish) ko'nikmasini rivojlantiradi.

- **Loyihaviy va amaliy ishlar:** Real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar (keysar) orqali kompetensiyalarni tekshirish.

- **Raqamli baholash platformalari:** Kahoot!, Quizizz, Google Forms kabi vositalar orqali tezkor va interaktiv testlar o'tkazish.

Strobel Education +6

II. Bilish faolligini oshirish usullari

O'quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirish uchun quyidagi usullar qo'llaniladi:

- **Muammoli ta'lim (Problem-based learning):** Darsda muammoli vaziyat yaratish va o'quvchilarni mustaqil ravishda yechim izlashga yo'naltirish.

- **Interfaol metodlar:** "Aqliy hujum", "Bumerang", "Klaster", "Sinkveyn" kabi metodlar orqali dars davomida o'quvchilar faolligini ta'minlash.

- **Evristik topshiriqlar:** O'quvchilarni ijodiy fikrlashga, fantaziya qilishga va yangi bilimni kashf etishga undovchi topshiriqlar.

- **O'yin texnologiyalari (Gamifikatsiya):** Ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini olib kirish (masalan, musobaqa, ballar to'plash), bu motivatsiyani oshiradi.

- **Tadqiqot metodi:** O'quvchilarni kichik tadqiqotlar o'tkazishga, ma'lumot to'plashga va xulosa chiqarishga o'rgatish.

- **AKT va zamonaviy texnologiyalar:** Multimedia, virtual laboratoriyalar va ta'limiy ilovalardan foydalanish.

III. Baholash va faollikni oshirish tamoyillari

Samaradorlikka erishish uchun baholash tizimi quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

- **Obyektivlik va adolatli:** Baholash mezonlari aniq va hammaga tushunarli bo'lishi lozim.

- **Tizimlilik:** Baholash darsning uzviy qismi bo'lishi kerak.

- **Individual yondashuv:** Har bir o'quvchining psixologik xususiyatlari va rivojlanish dinamikasi hisobga olinishi zarur.

- **Rag'batlantirish:** Baholash o'quvchini qo'rqitmasligi, balki keyingi rivojlanishga motivatsiya berishi kerak.

Kompetentlilik–(lotincha:competens–layoqatli, qobiliyati bor) Kompetentlilik tarkibiga sof kasbiy bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim–o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir. Tayanch kompetensiyalar:

Kommunikativ kompetensiya – jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o'zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;

– o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish;

– ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

– muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;

– turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur(konstruktiv) bo'lgan qarorlarni qabul qila olish.

Kompetentsiya berilgan vazifani bajarish yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini ta'minlovchi, olingan ko'nikma, bilim va tajribaga asoslanadi. Masalan, tarjimonning kundalik ishida foydalanadigan tilni bilish darajasi. Kompetentlik o'qitish yoki orttirilgan tajriba natijasida ilgari shakllangan kompetentsiyaga asoslanadi va ma'lum bir shaxsning xususiyatlarini, shuningdek, uning yuqorida tavsiflangan vazifalarni yoki faoliyatni bajarish qobiliyatini ifodalaydi.

Ko'nikma – bu malakaning tarkibiy qismi bo'lib, harakatning nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda o'z-o'zidan bajarilish qobiliyatini ifodalaydi hamda o'quvchilarda takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladi. SHu jihatdan ko'nikma ongli faoliyatni tez, tejamli, to'g'ri, kam jismoniy va aqliy kuch sarflagan holda bajarish jarayonining natijasi hisoblanadi. O'quvchilarning ko'nikmasi o'zlashtirgan bilimlari asosida tarkib topadi. Ko'nikma quyidagi xususiyatlarga ega: 1) bilim olishga odatlanish;

2) axloqiy fazilatlarni o'zlashtirish;

3) ijtimoiy jihatdan faollashib borish;

4) yangiliklarni o'zlashtirishga qiziqish. Bular umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining ko'nikmasini tashxis etishda mezonlar hisoblanadi.

O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish uchun ta'lim texnologiyalarini tanlashda o'quv fani o'qituvchisi taqvim mavzu rejada mazkur sinf uchun belgilangan tayanch kompetensiyalarni belgilab oladi. Shundan so'ng, o'rganilishi zarur bo'lgan mavzu va shakllantiriladigan kompetensiyalarni hisobga olgan holda darsni o'tish metodi, usuli tanlanadi.

Interfaol yondashuv. O'qituvchilar dars jarayonini yaxshi tashkil etish uchun qulay muhit yaratadi. O'quvchilarning o'zaro fikr (axborot) almashishlariga

imkon beriladi. Yechimini kutayotgan masalalarni hamjixatlikda muhokama etadilar, yechadilar. Vaziyatdan chiqishda hamkorlikda yechim topadilar. Olgan axborotlari asosida bilimlarini bir-birlariga namoyish etadilar.

FOYDANANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Селевко Г.К. Педагогические технологии на основе активизации и интенсификации деятельности учащегося. М.: Народное образование, 1998. 256 с. 1998.

2. O.U.Avlayev, S.N. Jo'rayeva, S.P.Mirzayeva "Ta'lim metodlari" o'quv-uslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti, Toshkent – 2017.

3. М.В. Плотников, О.С. Чернявская, Ю.В. Кузнецова “ Технология CaseStudy” Монография Нижний Новгород-2014.

4. Ситуационная методика обучения: Теория и практика Состав. Сидоренко А.И., Чуба В.И.- Киев: Центр инноваций и развития, 2001.- 256 с.

5. Зельдович Б.З. Ситуационное обучение управленческим дисциплинам — М.: Издательство Экзамен, 2008. — 544 с.

6. Бўрибоев А. А. Професионал таълимда “Нефт ва уни қайта ишлаш” мавзусини ўқитишда интерактив методлардан фойдаланиш методологияси //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5.

7. Бўрибоев А. А. Олий таълим тизимидаги ўқув фаолиятини ташкил этишда мустақил ишларнинг роли //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 1051-1055.

8. Бўрибоев А. А. Кимё фанидан мустақил ишларни ташкил қилишда кўп танловли тест топшириқларидан фойдаланиш //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 875-880.

9. Bo'riboev A. A., Xakberdiyev S. M. Kimyo fanini o'qitishda individual va differentsial yondashuv //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 348- 351.

10. Бўрибоев А. А., Хакбердиев Ш. М. Олий таълим муассасаларида кимёвий лаборатория машғулотларини такомиллаштиришнинг ўрни //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 352-355.

11.Djumayeva Mohigul Mamanazarovna O'quvchilarda tabiiy fanlarga oid savodxonlikni shakllantirishning psixologik – pedagogic xususiyatlari. Journal of science-innovative research in uzbekistan” jurnali, 31.10.2023. 334-341 b.

12. Джумаева Мохигул Маманазаровна. Развитие методической подготовки будущих учителей в преподавании естественных наук. "Экономика и социум" №11(114) 2023

13. Djumayeva Mohigul Mamanazarovna. Geografiya va tabiatshunoslik o`rtasidagi integrativ munosabatlar haqida. Zamonaviy sifatli ta`lim tendensiyalari xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari. konferensiya , 2024-yil.

14. Djumayeva Mohigul Mamanazarovna SCIENCE TEACHING RESEARCH METHODS. ISSN: 2776-0995 Volume 5, Issue 5, May - 2024.

15. Джумаева Мохигул Маманазаровна УНИВЕРСИТЕТТЕ БАСТАУЫШ ЖАРАТЫЛЫСТАНУ-ГЕОГРАФИЯ ПӘНІН ОҚЫТУ МӘСЕЛЕЛЕРІ. ЦИФРЛЫҚ БІЛІМ-ЗАМАН ТАЛАБЫ» АТТЫ ХАЛЫҚАРАЛЫҚ ҒЫЛЫМИ ТӘЖІРИБЕЛІК КОНФЕРЕНЦИЯ ЕҢБЕКТЕР ЖИНАҒЫ. - konferensiya , 2024- yil.